

DEMOGRAFIK HOLAT

Doimiy aholi soni. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktabr holatiga 1856,4 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 20,7 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 616,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,2 %), qishloq aholisi soni 1240,0 ming kishini (66,8 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:
2019 yil yanvar-sentabr**

Doimiy aholi soni **20,7 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **28,0 ming nafarni** tashkil etdi.

5,9 mingta vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limgalarida **10,1 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


**Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(yanvar-sentabr, ming kishi)**

	2018 y.	2019 y.
Doimiy aholi soni, davr oxiriga	1825,4	1856,4
Tug'ilganlar	27,1	28,0
Vafot etganlar	5,8	5,9
Aholining tabiiy o'sishi	21,3	22,0
Kelganlar	4,9	4,2
Ketganlar	5,7	5,6
Migratsiya saldosi	-0,8	-1,4
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	10,5	10,1
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	0,7	0,7
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	19,9	20,3
o'lim	4,3	4,3
aholining tabiiy o'sishi	15,6	16,0
tuzilgan nikohlar	7,8	7,3
nikohdan ajralishlar	0,5	0,5


Doimiy aholi soni
(1 oktabr holatiga)

	2018 y.	2019 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	1 825,4	1856,4	101,7
Urganch sh	141,5	143,1	101,1
Xiva sh	90,1	91,6	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Bogot	160,0	162,9	101,8
Gurlan	144,8	146,9	101,5
Qo'shko'pir	167,4	170,6	101,9
Urganch	192,6	196,4	102,0
Xazorasp	242,2	246,5	101,8
Xonqa	181,8	184,6	101,5
Xiva	141,5	144	101,8
Shovot	165,3	168,3	101,8
Yangiariq	113,0	114,9	101,7
Yangibozor	85,2	86,6	101,6

**Hududlar kesimida aholi soni
(2018 - 2019 yil yanvar- sentabr)**




**Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2019 yil 1 oktabr holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)**



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3%ni tashkil etib, keyingi o'rnlarda Urganch tumanida 10,6 %ni, Xonqa tumanida 9,9 %ni va Qo'shko'pir tumanida 9,2 %ni tashkil etgan.


Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 28,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,3 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 19,9 promille bo'lgan) kuzatildi.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)




Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Xorazm viloyati bo'yicha tirk tug'ilganlar soni
(yanvar-sentabr)**



Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 5,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,3 promille bo'lган).

**Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni
(yanvar- sentabr)**




Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar- sentabr)




Vafot etganlar soni,
ming kishi



O'lim koeffitsiyenti,
aholiga nisbatan, promille




**Hududlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-sentabr holatiga; 1000 tirik tug'ilganga nisbatan)**




2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,1 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,9 %i - o'simtalardan, 5,4 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,3 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,7 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,1 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,5 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 68,6 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 6,9 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,8 %i - tug'ma anomaliyalardan, 0,5 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,0 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,3 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 4,0 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2019 yil yanvar-sentabr holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan,
%da)**



**O'lim koeffitsentlari to'g'risida ma'lumot
(2019 yil yanvar-sentabr)**



Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 22,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 0,7 ming kishiga (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 21,3 ming kishi bo'lgan) o'sgan.


Tabiiy o'sish — 22,0 ming kishi



Nikoh. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 10,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Gurlan tumani (4,4 %), Xiva shahri (1,5 %), Qo'shko'pir(0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


**Xorazm viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot
(yanvar-sentabr)**



Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.


2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Urganch, Xonqa va Shovot (0,9 %), Yangibozor (0,7 %) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar
va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti**
(2019 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Gurlan tumani (1,2 %) va Qo'shko'pir (1,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Xorazm viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida
ma'lumot (yanvar-sentabr)**



Migratsiya. 2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,4 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,8 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr	ming kishi
Ko'chib kelganlar	4,9	4,2	
Ko'chib ketganlar	5,7	5,6	
Migratsiya saldosi	-0,8	-1,4	

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Xazorasp (minus 0,4 ming kishi), Gurlan (minus 0,3 ming kishi), Xonqa (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Urganch tumanida (plus 0,2 ming kishi) kuzatildi.